

NAVOIYNING TAXMIS YARATISH MAHORATINI ILG‘OR XORIJIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Mirzabek Xadjiyev,
JDPI II kurs magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent Surayyo Eshokulova*

“Ta’lim jarayonini ixtiyoriy qurish va amalga oshirishdan, uning har bir qism va bosqichlarini izchil asoslangan, yakuniy natijani haqqoniy tashxislashga yo’naltirilgan”[1]ga o’tish uchun asos zarur ekan, barcha davlat va jamoat tashkilotlarining vazifasi eng avvalo, uzluksiz ta’lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan, qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta’limning aniq maqsadga qaratilganligi erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi. Ta’lim jarayonini modernizatsiyalash hamda moddiy texnika bazasini yaxshilash, jamiyatni ma’naviy yangilash birinchi navbatda, yosh avlod an’analari insonparvarlik qadriyatlarini singdirish orqali ta’minlanadi. Bularning barchasi yosh kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Shu o‘rinda mashhur marketolog Djon O‘Shonessining *“... kitoblar hech qachon tajriba o‘rnini bosa olmaydi”* degan fikriga qo‘shilish mumkin. Mahoratli oshpaz oshpazlik to‘g‘risida kitob yozishi mumkin, uni tayyorlash yo‘liga amal qilib, xuddi shunday chiqishini kutmaslik kerak, chunki uning mahorati bilan taqqoslab bo‘lmaydi – berilgan qoidani ishlatib muhim ko‘nikma va malakalar ega bo‘lish mumkin emas, ular faqat amaliyotda egallanadi va *“qo‘llaniladigan donishmandlik”* deb ataluvchi donishmandlik bilan mustahkamlanadi, ya’ni *“vaziyat bilan muvofiqlikdagi donishmandlikdir”* [10].

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta’limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonini ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ta’limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish bilan o‘lchanadi. Shuning uchun talaba-yoshlardagi ma’lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo’naltirilgan o‘qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Eng muhimi esa, talabalarda mustaqil bilimlarni egallash, yangiliklarni qidirish, mavzuga ijodiy yondashish xususiyatlari oshadi. O‘rganilayotgan mavzu har tomonlama tahlil etiladi va hayotiy jarayonlar bilan bog‘lanadi. Pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati sezilar ekan, biz quyida Navoiyning taxmis yaratish mahoratini ilg‘or xorijiy texnologiyalar asosida o‘qitish bo‘yicha tavsiyalarimizni bermoqchimiz.

Darhaqiqat, ta’limga innovatsion (inglizcha innovation – yangilik kiritish) yondashuv g‘oyasi ta’lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo‘nalganligi, ta’lim mazmuni shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari, ilg‘or

tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi [4].

Shuningdek, talabalarni muayyan bilimlar sohasini egallashga yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini xolis baholash imkonini beradi. Buning uchun xalqaro standartlar asosida ta'limni tashkil etish, boshqarish va mos ravishda o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash talab etiladi. Boshqarish jarayonida turli innovatsion usullardan keng foydalaniladi.

Hozirgi kunda ilg'or xorijiy texnologiyalardan ommaviylari quyidagilar sanaladi: interfaol **metodlar** ("Modellashtirish", "Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat", "Musobaqa-bellashuv" va b.); **strategiyalar** ("Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval" va h.k.); **grafik organayzerlar** ("Konseptual jadval", "Baliq skeleti", "BBB", "Venn diagrammasi", "Nilufar guli", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?") va boshqalar.

Maqolada yuqoridagi ommaviylashgan ilg'or xorijiy texnologiyalardan har bir metodika uchun umumiy xususiyatga ega bo'lgan o'ziga xos tomonlarini o'zaro bog'liqlikda **"Navoiyning taxmis yaratish mahorati"** mavzusini **"Modellashtirish"** metodi, **"Aqliy hujum"** strategiyasi va **"Konseptual jadval"** grafik organeyzeri yordamida tahlil qilamiz.

1-Model

"Aqliy hujum" strategiyasining tarkibiy tuzilmasi


Muammoli savollar:			
1. Mumtoz adabiyotimizda o'z g'azallariga taxmis bog'lash hodisasi Alisher Navoiygacha mavjudmidi? Bu holat Alisher Navoiydan keyin qay darajada davom etgan?	2. Alisher Navoiy o'zining ilk taxmisini qachon bitgan va u kimning g'azaliga bog'langan?	3. Nega Alisher Navoiy o'zining ilk taxmisini Lutfiyning "Laylatul me'rojning sharhi sochi tobindadur" misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga bog'lagan?	4. Nima uchun Alisher Navoiy ma'lum bir yoshdan so'ng o'z taxmislarini boshqa shoirlarning g'azallariga bog'lamay, o'zining g'azallari asosida muxammas bitishni ma'qul ko'rgan?

Mavzu doirasidan qo'shimcha materiallar:

Ma'lumki, "muhammas (arab. – beshlik) – sharq she'riyatidagi she'riy shakllardan, qofiyalanish tartibiga ko'ra tuzilgan she'r. Muhammasning har bir bandi 5 misrdan iborat bo'lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a, ba'zan esa a-a-a-a-a, b-b-b-b-a

tarzida qofiyalanadi. Bandlarning oxirida shoir taxallusi keltiriladi. Muammas birinchi bandning beshinchi misrasida qofiya sifatida qo‘llangan so‘z shu misra bo‘ylab 2-3 marta takrorlanadigan namunalari ham uchraydi (masalan, Dilkash, Romil Xorazmiy, Feruz, Muazzamxon va boshqalar ijodida)” [6;302]. Muxammaslar yaratilish xususiyatiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1-ilova



Demak, taxmis (arabcha – beshtalik qilish, beshtaga yetkazish) – muxammasning bir turi. Taxmis bandlari ham muxammas singari 5 misradan iborat; ular bir shoirgagina tegishli bo‘lmay, balki 2 shoirning misralaridan tashkil topadi: dastlabki 3 misra taxmis yozayotgan shoir qalamiga, keyingi 2 misra esa taxmis yozilayotgan shoir g‘azaliga mansub bo‘ladi. Taxmisda har ikkala shoirning bir bandni tashkil etayotgan misralari mazmun va shakl jihatidan o‘zaro mos bo‘lishi talab etiladi. Taxmisni, odatda, falonchi shoirning g‘azaliga muxammas, deb ta’kidlab yozganlar (faqat bir shoirning misralaridan iborat bo‘lgan muxammaslarga ba’zan “ta’bi xud” – o‘ziniki, o‘zining ta’bi, deb qushib yozganlar). Taxmislar shoirga yoqqan g‘azallarga yozilishi sababli birgina g‘azalga bir necha taxmis qilinishi mumkin... Taxmis yozish shoirdan katta mahorat talab etadi, chunki taxmis yaratuvchi shoirlar o‘zidan avval yashab ijod qilgan shoirlarning yetuk g‘azallarini rivojlantirganlar, an’analarini davom ettirganlar. Taxmisning so‘nggi bandida shoirlarning taxalluslari eslatib o‘tiladi [12].

Tab'i xud muxammasda barcha misralar bir shoirning o‘zi tomonidan yaratiladi. Bunda ijodkor o‘zga shoir she’rini asos qilib olmaydi, balki o‘zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi. **Taxmisda** esa muallif o‘zga shoir yoki ba’zida (juda kam hollarda) o‘z g‘azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g‘azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo‘shiladi. Maqta’ bandeda taxmis bog‘layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi.

O‘zga shoir g‘azaliga taxmis bog‘lash – bu go‘yo shu shoir bilan ijodiy hamkorlik va muayyan ma’noda adabiy musobaqaga kirishishdir. Shuning uchun ham ijodkorlar, odatda, o‘z taxmislarini ma’lum poetik mahoratga ega bo‘lganlaridan keyin yarata boshlaganlar. Yana shuni unutmaslik kerakki, bunda g‘azal muallifi bilan unga taxmis bog‘layotgan muallif o‘rtasida mushtarak dunyoqarash, estetik ideal hamohangligi va g‘oyaviy yaqinlik bo‘lishi zarur. Taxmis muallifi g‘azalda keltirilgan fikrlarni mantiqan rivojlantirib, uni o‘z ijodiy g‘oyalari bilan shunday to‘ldirishi va boyitishi kerakki, natijada, vujudga kelgan she’r unga

asos bo'lgan g'azal bilan uyg'unlashib, bir muallif tomonidan yaratilgandek tasavvur uyg'otsin.

2-ilova

O'zbek she'riyatida muhammas janrini yaratilish tadriji va takomili:

Muhammasning o'zbek she'riyatidagi ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Gadoiy devonlarida uchraydi.	Navoiy davrida uning tazmin namunalari yaratilgan.	Muhammasnavislik, ayniqsa, XVII asrdan boshlab tez rivojlangan. Mashrab, Vafoiy, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Munis, Furqat, Xiromiy, Muqimiy va boshqa shoirlar mumtoz muhammaslarni yaratganlar.	Muhammas XX asr she'riyatida ham an'ana sifatida davom etdi. Masalan, Sobir Abdulla, Charxiy kabi shoirlar boshqa shoirlarning g'azallariga muhammaslar bog'laganlar [12].
--	---	---	--

Alisher Navoiy she'riyati janrlarga boyligi bilan ham alohida ahamiyat ega. Uning turkiy tilda yaratgan she'rlari 16 janrda bo'lib, ushbu ijod namunalari tom ma'noda shakl va mazmun birligining yuksak namunasi hamdir. Ushbu 16 janr orasida **muxammas** alohida o'rin tutadi. Chunki o'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, shoir o'z g'azallariga muxammas bog'lashdek yangi an'anaga asos solgan ekan.

2.1-Model

Fikr va g'oyalar:

1. "Mumtoz adabiyotimiz nodir merosini ko'zatar ekanmiz, o'z g'azallariga taxmis bog'lash Alisher Navoiy ijodidan boshlanganligini kuzatamiz. Navoiydan keyin esa bunday holat ba'zi shoirlar, xususan Xiva adabiy muhiti shoirlari ijodlarida ko'rinadi" [9]. Bizning fikrimizcha nafaqat Xiva adabiy muhitida, balki Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodlarida taxmis yaratish an'anasi ham kuzatiladi. Fikrimiz isboti o'laroq S.Eshonkulovning "Nodiraning taxmis yaratish mahorati" nomli maqolasida Alisher Navoiy g'azaliga Qo'qon adabiy muhitining yirik vakilasi Nodira taxmis bog'laganligiga guvoh bo'lamiz [3].

Fikr va g'oyalar:

2. "Xazoyin ul-maoniy" nomli yirik kulliyotdan shoirning 10 ta muxammasi o'rin olgan. Qizig'i shundaki, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan 10 muxammasidan barchasi taxmis, ya'ni g'azalni beshlantirish asosida vujudga kelgan muxammas hisoblanadi. Bularning 3 tasi "malik ul- kalom" Lutfiyga, qolgan 7 tasi esa shoirning o'z g'azallari asosida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida ijodkorning o'z g'azaliga taxmis bitish hodisasi kam uchraydi [9]. Demak "Xazoyin ul-maoniy"da keltirilgan 3 ta muxammas beshlantirish asosida yaratilgan taxmis – g'azal bo'lib, ikki misrasi xalafi Lutfiy qalamiga mansub, qolgan uch misrasi esa Navoiyning o'z ijod namunasi ekan.

Ushbu taxmisning yaratilish davriga e'tibor qaratsak, "Professor Hamid Sulaymon tomonidan tayyorlangan va shoirning dastlabki she'rlari kiritilgan "Ilk devon"ning fotonusxa nashrida bir muxammas mavjudligini ko'ramiz. Ushbu devonning 1465-1466 yillarda tuzilganligini hisobga olsak, Alisher Navoiy o'zining ilk taxmisini mavlono Lutfiy g'azaliga 25 yoshiga qadar yaratib bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Mazkur taxmis quyidagi band bilan boshlanadi:

*Sharbati "yuhyil izom" erni mayi nobindadur,
Surayi "vashshams" tafsiri yuzi bobindadur,
Sharhi "mozog'ulbasar" nargislari xobindadur,
Laylatul me'rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur.*

Odatda, g'azalga taxmis bog'lanayotganda uning bandlari soni g'azal baytlariga mos holga keltiriladi. Lekin ba'zan shoirning xohishiga ko'ra, g'azaldagi ayrim baytlarga taxmis bitilmasligi, ya'ni ular qisqartirilishi mumkin. Aynan shu holat yuqoridagi taxmisdan ham kuzatiladi. Taxmisga asos bo'lgan Lutfiy g'azali, aslida, hajman 7 baytdan iborat. Ammo taxmis bog'langanda uning ikki bayti qisqartirilib, 5 band holiga keltirilgan [9].

3-ilova

Mavlono Lutfiy Alisher Navoiy nigohida:

Mavlono Lutfiy o'z zamonining malikul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir va mutaazzirul javob matla'lari bor.	Va Mavlononing "Zafarnoma" tarjimasida o'n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor, bayozg'a yozmag'on uchun, shuhrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago'y ustodlardin ko'pining mushkul she'rlarig'a javob aytibdur va yaxshi avtibdur.	To'qson to'qquz yashadi va oxir umrida radifi "oftob" she'ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu' qildilar, hech qaysisi matla'ni oncha ayta olmadilar .
---	---	--

3.1-Model

Fikr va g'oyalar:

3. Olimaning g'azal sharhidan ma'lum bo'ladiki, "Alisher Navoiyning mazkur g'azalga murojaat qilishi ham tasodifiy bo'lmay, muayyan asoslarga ega. Navoiy shu yillari buyuk so'z ustasi Abdurahmon Jomiy bilan tanishgan va ustoz ta'sirida vahdat ul-vujud (butun borliqning yagonaligi) ta'limotiga qiziqqan. Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy vahdatul vujud ta'limotini naqshbandiya tariqatiga tatbiq qiladi . Undagi g'oyaga ko'ra, komil inson – Yaratganning bir zarrasi sifatida ham tashqi, ham ichki go'zalliklar majmuidir. Komil inson timsolining oliy namunasi bo'lgan Payg'ambar (s.a.v)dan tortib barcha valiy zotlar ham komil inson timsoli hisoblanadilar. Lutfiy g'azalida tavsifi keltirilgan yor muayyan ma'noda komil inson timsolidir. Shu o'rinda aytish mumkinki, insonni butun "maxluqotlarning toji" sifatida ulug'lagan Alisher Navoiy "malik ul-kalom"ning ushbu g'azalidan ta'sirlanishi va undagi g'oyani rivojlantirib, mazkur g'azalga taxmis bog'lashi bejiz emas edi. Navoiy taxmisning birinchi bandida Lutfiy g'azali matla'sida keltirilgan komil go'zallik ta'rifiga hamohang tarzda iqtibos san'atidan foydalanib, har bir misrada Qur'on oyatlaridan jumla keltiradi" [qarang: 9].

3.2-Model

Fikr va g'oyalar:

3. Yosh Navoiyning dastlabki muxammaslarini “malik ul-kalom” g'azallariga bog'layotganligi bejiz bo'lmay, bu holatni Lutfiyning Navoiygacha bo'lgan turkiy adabiyotda tutgan yuksak maqomi, uning badiiy jihatdan mukammal she'riyati bilan izohlash mumkin. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn”da turkiy she'riyatda o'zidan avval yetishib chiqqan bir necha shoirlarni tilga olib, shunday yozadi: *“Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiy... Va forsiy mazkur bo'lg'on shuaro muqobalasida kishi paydo bo'lmadi, bir mavlono Lutfiydin o'zgakim, bir necha matla'lari borkim, tab' ahli qoshida o'qusa bo'lur...”* [9].

3.3.-Model

Fikr va g'oyalar:

3. Alisher Navoiy bu o'rinda turkigo'y shoirlar orasida forsiy adabiyotdagi Xoqoniy, Avhauddin Anvari, Kamol Ismoil, Zahir Foryobiy, Salmon Sovajiydek qasidanavislar; Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydek masnaviy ustalari; Sa'diy Sheroziy va Hofiz Sheroziy kabi g'azalnavis shoirlar yetishib chiqmaganligiga e'tiborini qaratib, turkiy shoirlardan faqat Lutfiygina ular bilan she'riy musobaqaga kirishish salohiyatiga ega bo'lganligini ta'kidlayapti. Alisher Navoiyning o'ttiz yoshgacha bo'lgan davrda yaratgan taxmislari aynan Lutfiy g'azallariga bitilganligi bu fikrni asoslaydi [9].

IZOH

Tazmin va taxmis o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar:

2-ilovada ko'rsatilgan **taxmis** to'g'risidagi internet ma'lumotida "Navoiy davrida uning **tazmin** namunalari yaratilgan" deyilgan. Ammo shu aytish joizki, tazmin va taxmis o'rtasida farq bor. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, taxmis – muhammas janrining turi hisoblanadi. Tazmin esa tatabbu' janrining bir turi hisoblanadi. Taxmis faqat nazmda uchraydi. Tatabbu' esa ham nazmda, ham nasrda kuzatilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asari mashhur fors-tojik shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga javobiyadir. Taxmis – *beshtalik qilish, beshtaga yetkazish* degan ma'nolarni bildirsa, *tatabbu'* ham aslida arabcha so'z bo'lib, *kimningdir izidan borish, izlash, o'rganish, mos kelish, qayta yaratish* kabi ma'nolarni bildiradi. Taxmis bilan tazminning lug'aviy ma'nolarini hisobga olaydigan bo'lsak, ular o'rtasida tuzilish jihatdan ham farq borligini ko'ramiz. Tatabbu' ijodiy bellashuv, tatabbuna'vislik esa *an'ana, yangilik* va *mahorat* uchligi bilan bog'liq faoliyatdir.


Shuningdek, tazmin va taxmis o'rtasida o'xshash jihatlar ham bor. Masalan, **tazmin** xalaf shoir she'rida mashhur salaf shoir she'ridagi biror shohbayt yoki biror bir misraning keltirilishidir. Agar xalaf shoir she'ri tatabbu' bo'lsa, tazmin sifatida keltirilgan misra yoki baytdagi fikrlar tatabbu'da ijodiy ravishda davom etiriladi. Taxmisda ham salaf shoir she'ridan ikki misra keltiriladi, qolgan faqat uch misralari xalaf shoir ijodiga tegishli bo'ladi.

4-Model


Fikr va g'oyalar:

4. Ma'lumki, Alisher Navoiy so'zga, xususan, she'rga yuksak talabchanlik bilan yondashgan. U har bir janrning qonun-qoidalarini chuqur bilgani holda muhammas janriga ham ijodkor g'oyalarining ifodasi sifatida qaragan. Alisher Navoiy tanlagan g'azalda buyuk shoirning dardu dunyosi, albatta, aks etishi shart edi. Ehtimol, Alisher Navoiy muayyan bir ijodiy salohiyatga yetishgandan so'ng turkiy adabiyotda mana shunday she'r namunasiga duch kelmagandir, boshqa shoirlarning baytlarida o'z olamining aks-sadosini his etmagandir?! Bu esa badiiy didi yuksak bo'lgan Alisher Navoiyning o'z g'azallariga taxmis bog'lashiga olib kelgan bo'lishi mumkin. Qolaversa, shoir, yuqorida ko'rganimizdek, "Majolis un-nafois"da turkiy tilda ijod qilgan Atoyi, Gadoiy, Sakkokiy kabi yirik shoirlar haqida to'xtalgani holda faqat Lutfiy g'azallarini taxmis bitishga munosib ko'rmoqda [9].

5.1-Model 1-Konseptual jadval



5.2-Model 2-Konseptual jadval



Aniq va to'g'ri javoblar tanlab olinadi:

LUTFIY SHAXSIGA BAHO

Lutfiy ham zohiriy-dunyoviy, ham diniy-tasavvufiy ilmlarni chuqur egallagan, davr va zamoniga ochiq nazar bilan qarashga qodir, haqiqat va ma'rifatga sodiq ijodkor bo'lgan.

NAVOIY MEROSI

Alisher Navoiy Lutfiydan she'riyatning sirru sinoatlari bobida ko'p narsa o'rgangan. Ustoz she'riyatiga bo'lgan katta e'toqod bilan uning *"Laylatul me'rojning sharhi sochi tobindadir"*, *"Ko'kdadir har dam fig'onim ko'rgali sen mohni"*, *"Ey soching shaydo ko'ngillarning savodi a'zami"* misralari bilan boshlanuvchi g'azallariga taxmis bog'lagan.

YETUKLIK

Shoir muayyan mavzuga doir g'azal yozar ekan, oradan vaqt o'tib, shu mavzuga qaytishga ehtiyoj sezgan va shu tariqa o'z g'azallarini muhammas holiga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Беспалько О.В. Социальная педагогика: схемы, таблицы, комментарии (учеб.пособие). – М.: Центр учебной литературы, 2009. – 208 с. – ISBN 978-966-364-837-8.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. –М.: Педагогика, 1995..
3. Eshonkulova S. Nodiraning Navoiy g‘azaliga taxmisi // O‘zbek tili va adabiyoti. –Т.: Fan, 2013. №5. 73-75.
4. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Т.: TDPU, 2005.
5. Nusratullo Jumaxo‘ja. Navoiy g‘azaliyoti talqinlari. –Т.: O‘zbekiston, 2018. –384 b.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild. –В. 302.
7. Rahmonova Sh. Erkin Vohidovning Navoiyga bog‘lagan taxmisi // “Erkin 4.Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Guliston: 2020. –В.561-564.
8. To‘xliyev B. Navoiy g‘azallari (nasriy bayon, sharh va izohlar). –Т.: Bayoz, 2014. –В.258.
9. Yusupova D. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/dilnavoz-yusupova-alisher-navoiy-taxmislari.html>
- 10.О`Шонесси Дж. Конкурентный маркетинг: Стратегический подход (пер. с англ.) – СПб.: Питер, 2001. – 864 с. – ISBN 5-318-00030-4.
- 11.Xudoyqulov X.J. Pedagogik texnologiya ta’lim samaradorligining asosidir. – Т.: Navro‘z, 2012.
- 12.<https://fayllar.org/2-taxmis-gazalni-beshlantirish-asosida-yaratiladigan-muxammas.html>